MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

ASKIYACHILARNING FONOSTILISTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Hikmatullo Do‘smatov,
askiyashunos olim, FarDU professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘zbek milliy askiya san’atida so‘z o‘yinlarining namoyon bo‘lishi haqida so‘z yuritiladi. Maqolada so‘z o‘yinlari hosil qilishning fonostilistik usul va vositalari askiya matnlari misolida tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar*: askiya, fonostilistika, so‘z o‘yinlari.*

Аннотация. *В данной статье речь идет о проявлении игры слов в творчестве узбекской народной аскии. В статье анализируются фоностилистические приемы и средства создания каламбуров на примере текстов аския.*

Ключевые слова: *аския, фоностилистика, словесные игры.*

Abstract*. This article is about the manifestation of word games in the art of Uzbek national Askiya. In the article, the phonostylistic methods and means of creating puns are analyzed on the example of Askiya texts.*

Keywords: *askiya, phonostylistics, word games.*

O‘zbek tilshunosligida fonetik vositalarning uslubiy[14] va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish[15] bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shunga qaramay, hozirgi kunda fonostilistikaning tadqiqot doirasi nihoyatda kengaygani bois, bu sohada jiddiy va chuqur kuzatishlar olib borish lozim, deb o‘ylaymiz. Bu fikrni bir qator olimlar tasdiqlaydilar[16]. Ayniqsa, askiya matnlarida tovush o‘zgartirishlarning lingvostilistik xususiyatlari, uning fonopragmatik talqini, nutqiy birliklarning tovushlar talaffuzi bilan aloqador konnotativ ma’nolari, nutq tovushlari o‘zgarishi bilan aloqador so‘z o‘yinlari, intonatsiya, pauza, urg‘u kabi ustsegment elementlarning askiyachi va qiziqchilar nutqida uslubiy ma’noda qo‘llanishi imkoniyatlarini kengroq o‘rganish o‘zbek tili fonostilistikasi yuzasidan muhim nazariy xulosalar qilish imkonini beradi.

Tilimizdagi fonetik hodisalarning sodir bo‘lishiga nutqda ixchamlikka intilish, bo‘g‘inga urg‘uning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar kabi tabiiy omillar sabab bo‘lsa, askiyachilar nutqida uchraydigan tovush o‘zgarishlariga maxsus poetik figura sifatida yondashish lozim. Nutqda qo‘llanadigan fonostilistik vositalar bilan aloqador so‘z o‘yinlariga tabiiy nutqiy jarayon sifatida emas, balki maqsadli nutqiy jarayon sifatida qarash maqsadga muvofiq. Chunki turli stilistik ifoda uchun til birliklarining fonetik strukturasi

[14] Қаралсин: 1) Яхшиева Г.Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996. –132 б.; 2) Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008. – 22 б.

[15] Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2014. –172 б.

[16] Қаралсин: 1) Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Туркий тилларнинг фонологияси ва морфонологиясининг долзарб масалалари. – Нукус, 2005. –Б. 45-48.; 2) 2) Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008. –22 б.

ataylab o‘zgartiriladi. Bu esa askiya matnini inson omili asosida, antropotsentrik jihatdan tahlil etish, nutq (matn)dagi tovush o‘zgarishlarini: tovush almashishi, tovush tushishi, tovush ortishi hodisalarini “tovush almashtirish”, “tovush tushirish”, “tovush orttirish” atamalari bilan nomlash to‘g‘ri bo‘ladi. “Parranda” payrovi misolida fikrlarimizni asoslash mumkin:

Karimov: Qovog‘ingni ochsang-chi, og‘ayni! Seni qattiq tanqid qilganlar ular-u, menga *keklik* qilasanmi?

Salimov: Hali men tanqid qilmadim degin. Ana *maynabozlik*. Aytib turib aytmadim deb, tonadigan bo‘lsang, sen sutti oq desang ham ishonmayman.

Karimov: Ahvoling shu bo‘ladigan bo‘lsa, og‘ayni, keyincha, meni *u zog‘*dan ko‘rganda, so‘kinib, *qarg‘a*b yuramasang go‘rgaydi.

Salimov: Sening har safar majlisda gapirganingni eshitganlar, falonchi juda mag‘izli, *dona*li gapiradi, puch gaplarni gapirmaydi deb maqtashar edilar. Bugun gapirgan gaplaringga quloq solib taajjublandim, so‘zlaring mag‘izli emas, misollaring puch, *bedon-a!*..

Karimov: Kengashdan charchab chiqdik! Ha deb gap sota bermasdan bir choynak choy olib chiqsang-chi! *Tur, g‘oy*ib nazar!..

Salimov: Holing shu bo‘ladigan bo‘lsa, boshqa bir odamni ko‘rsatib, seni tanqid qilgan men emas, *“bul, bul”* deyishdan ham tonmaysan.

Payrov va so‘z o‘yini talabi bilan so‘z o‘yinini yuzaga chiqarish uchun so‘zlovchidan ko‘ptalqinli sintaktik aloqani ta’minlash, til birliklari aloqa-kombinatsiyasi hosilasini vujudga keltirish lozim bo‘ladi. Shunga ko‘ra, askiyachilar nutqida uchraydigan tovush o‘zgartirishlari holatlariga fonostilistik hodisa sifatida qaramay, balki unga semantik-sintaktik-stilistik hodisa, keng qamrovli lingvistik jarayon sifatida yondashish ahamiyatli.

Askiyachilar o‘z nutqida fonostilistik vositalar yordamida bir paytning o‘zida birdan ortiq axborot ifodalash zarurati tufayli fonetik birliklarning kontekstdagi axborot tashish vazifasini orttiradilar. Bunday uslubiy talab bilan nutqning kommunikativ vazifa ko‘lami murakkablashtiriladi, nutqiy birliklar polisemiyalashtirilib, ifodaning serqirraligi hamda polifunksionallik ta’minlanadi. Tovushlarni o‘zgartirish nutqning ekspressiv jihatini kuchaytiradi, nutqning o‘ziga jalb qilish, mulohazaga chorlash funksiyasini oshiradi.

Fonostilistik o‘yin “fonopragmatik ta’sir” va “fonopragmatik hujum” strategiyasidan iborat bo‘ladi. Tinglovchi askiya paytida nutq tovushlarining konteksdagi ekspressiv imkoniyatlarini tez, to‘g‘ri va turlicha idrok etishi lozim bo‘ladi. Tovush o‘zgartirishlari leksema, morfema hamda sintaktik aloqa hosilasi natijasida (leksema+morfema, leksema+leksema) ham yuzaga chiqariladi.

Tovush almashtirish. Askiyachilar o‘zlari tanlagan mavzuni kengroq yoritish maqsadida ba’zi bir so‘zlarni tegishli soha doirasidagi atamalarga moslashtirib talaffuz etadilar va nutq tovushlarini bir-biri o‘rnida qo‘llaydilar: *Tohirjon:* Kolxoz duradgorlari brigadalarga chiqmay, nuqul raisnikida *pol ochishadi-ya.*

Hasanjon: Komissiya kamchiliklarni ko‘rsatgani yaxshi, ishga foydasi tegadi. Siz bo‘lsangiz komissiya kelganda, o‘zingizni *ponaga olasiz.*

“Duradgorlik” payrovi. Askiya. 70-b..

Nutqda paronomaziya hodisasi birinchi gapda *p* va *f* tovushlarini, ikkinchi gapda *o* va *a* tovushlarini almashtirish bilan yuzaga chiqarilgan hamda duradgorlik sohasiga oid atama (*pol va pona*)ni matnda ishlatish bilan payrov talabiga amal qilingan. *Pol* va *pona* leksemalari implitsit ifoda vositasi, *fol* va *pana* so‘zlari esa eksplitsit axborot tashuvchi birlikdir. Har ikkala gapdagi birikmalarning ichki tomoni(ma’nosi)ga e’tibor qaratsak, *pol ochmoq – uyning yuradigan taxtali qismini ochmoq* ma’nosida, *fol ochmoq – kishi bilishga qiziqqan noma’lum voqea, hodisalarni go‘yo oldindan aytib berishga urinmoq yoki oldindan “bilmoq”, aytib bermoq*[17] ma’nosida; *panaga olasiz – hech kim ko‘rmaydigan yashirin joyga berkinasiz* ma’nosida, *ponaga olasiz* birikmasi *pona – narsalarni yorish, kerish yoki biriktirish uchun ishlatiladigan bir uchi tig‘li yog‘och yoki temirni*[18] nazarda tutib hosil qilingan, ya’ni *panaga olasiz* degan lisondagi mavjud tushuncha asosida *ponaga olasiz* birikmasi nutqiy okkazianal hosila sifatida ishlatilgan.

Askiyachilar tomonidan almashtirib talaffuz qilingan har bir tovush aniq bir sub’ektiv munosabatga ishora qiladi:

Tursunbuva: Mamaroziqning pishishiga yana o‘n besh kun bor. Hozir mana bu Maxsum aka bilan gaplashgim bor. Maxsum akani boqqa olib kirib, qaysinisidan olib beray: undan olib beraymi, bunday olib beraymi, *qandayidan* olib beray, deb so‘rasam, hech qaysisiga unamaydilar, *o‘zum* tuzuk deydilar.

Jo‘raxon aka: O‘zim tuzik demoqchi-da, Maxsum.

“Bog‘bonchilik” payrovi. Askiya. 38-b.

Ushbu matnda *qandak* degan shirin bir nav o‘rik nomiga *qayday* so‘roq olmoshi bilan, *uzum* mevasiga *o‘zim* o‘zlik olmoshi bilan ishora qilingan.

Rahmatqul aka: Rejani bajarmaganingizga qo‘ymaymiz, salomat bo‘ling, albatta, bajarasiz biz bog‘dan *sovliq* tilab tursak.

“Chorvachilik” askiyasi. Askiya. 27-b.

Payrovda *sog‘lik – sovliq* tarzida talaffuz qilingan va bu bilan *urg‘ochi ona qo‘y* hamda *sihat-salomatlik* ma’nolari ifodalangan.

Maxsum aka: Xayriyat, kimyo bizga juda o‘g‘it bo‘lib qoldi. kimyoxonning qo‘liga tushsak, biz ham ko‘karadiganga o‘xshaymiz.

Kimyoxon: Kimyoga ishingiz tushmapti, qarab turing boshingiz osmonga *ham* yetadi. Oziq-ovqatlarni kimyoxon ko‘paytirib qo‘ydi, deb maqtanavering.

“Kimyoxon” payrovi. Askiya. 41-b.

Ham – ta’kid, ko‘chaytirishni bildiruvchi yuklama[19], *xam* [f.] – *egilgan, bukilgan*[20] ma’nosini anglatuvchi leksema. Har ikkala birlikni bir-biri o‘rnida qo‘llash jumla mazmunida ma’no o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, ya’ni *boshingiz osmonga egik holda yetadi* degan salbiy mazmun anglashiladi. So‘zlovchining mazkur iborani aynan Abdulhay Maxsum Qazoqovga nisbatan qo‘llashi uning «kal» laqabiga qochirim hamdir.

Tovush orttirish. Undosh tovushlarni ikkilantirish, qavatlantirish (geminatsiya) bilan ko‘chma ma’no ifodalash mumkin:

[17] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. IV жилд. –354 б.
[18] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. III жилд. –294 б.
[19] ЎТИЛ. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. V жилд. –496 б.
[20] ЎТИЛ. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. IV жилд. –496 б.

Abdullajon aka: Planni bajarmading, deb ayblashga siz ham ustasiz, bultur aytmovdimmi, qo‘l bo‘lmayapti, separator olib beringlar deb. Shunaqa bo‘laversa, gaplaringizda ham *jir* qolmaydi.

Rahmatqul aka: Gap *yog‘*lashga qolganda *ayron*ingiz achimaydi, ferma ishiga mudir ham aralashadi-da, uvib o‘tirasizmi oqlik solingan *qattiq*qa o‘xshab**.**

“Chorvachilik” payrovi. Askiya. 27-b.

Matnda tovush orttirish bilan so‘zdan so‘z hosil qilingan. Ushbu usulni quyidagi misoldan ham ko‘rish mumkin:

Mamajon aka: Ibrohimjon ham yuvosh odam, ikki gapning birida savalamaydi.

Rahmatqul aka: Qarg‘a, qarg‘a deysiz, *qarg‘ay*mi?

“Qushlar” payrovi. Askiya. 32-b.

Tovush orttirish hodisasi okkazional juft so‘zshakllarda ham uchraydi:

Ibrohimjon: Bog‘da *“kishi-mishi”* yo‘qmi, yana yumaloq qilib tashlamay.

“Uzum” payrovi. Askiya. 36-b.

Agar kishmish – *mevasi maydaroq bo‘ladigan uzum va shu uzumning mayizi*[21]ni nutqda qo‘llash “Uzum” payrovining birlamchi talabi; *kishmish* leksemasiga ishora qilish maqsadida *kishi-mishi* juft so‘zini qo‘llash so‘z o‘yini talabi hisoblanadi.

Tovush tushirish. Jo‘raxon aka Mahmudjonga imo qilib: ***“ol, xo‘r”*** deya uning “it” laqabiga ishora qiladi:

Jo‘raxon aka: Shaftolilar har xil bo‘larkan, Maxsumning maqtovini keltiryapsiz. Bog‘ to‘la meva. Hadeb shaftolidan gapiravermay, Mahmudjonga imo qilib: *“ol, xo‘r!”* demaysizmi?

“Bog‘bonchilik” payrovi. Askiya. 40-b.

So‘z o‘yini *olxo‘ri* leksemasini uch butunlik, ya’ni *ol* (*olmoq* fe’li), *xo‘r* (fors-tojikcha *xo‘rdan – yemoq* fe’li) hamda *i* morfemasiga bo‘lish bilan amalga oshirilgan. Matn propozitsiyasi *olxo‘ri* [f.t.] – *mevali daraxt; shu daraxtning shirin mevasi*[22]; matn presuppozitsiyasi *olxo‘ri* leksemasi tarkibidagi *i* tovushini tushirish hamda *olxo‘ri* leksemasini pauza (to‘xtam) bilan talaffuf etish asosida yuzaga chiqarilgan. *Olxo‘ri* leksemasi nutqda ataylab polisemantik (*it, meva*) hamda polifunksional birlikka (ega hamda kesim+kesim) aylantirilgan.

Nutq tovushlari o‘rnini almashtirish. Shoirlar payrovida Anisiyning ismi so‘z o‘yini talabi bilan Aniysi shaklida o‘zgartirilib, olmosh turkumiga xos “*ko‘rsatish*”, “*kishilik*”, “*ta’kidlash*” ma’nolaridan foydalangan holda, atoqli otlar sturukturasida masofaviy (distant) metateza usuli, shoir Atoiy ismini Atoyi shaklida qo‘llab, *Alloh tomonidan ato etilgan* degan ma’no bilan metatezaning kontakt (masofasiz) usulida so‘z o‘yini talablari bajarilgan:

Rasul domla: Naymanchaga sizlardaqa shoirlarni ko‘rgani kelganmiz. Olimjon aka shoirlarning *Aniysi*ga o‘xshaydimi?

Qodirjon aka: Ha, bu kishi shunaqa *Atoyi* odamlar?

Aralash turdagi tuvush o‘zgarishlari. Tovush orttirish+tovush tushirish. So‘z ustalari lisoniy birliklarning semantik strukturasida stilistik talab bilan birdan ortiq fonetik o‘zgarish qilishlari mumkin:

[21] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. II жилд. – 381 б.
[22] ЎТИЛ. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. III жилд. – 119 б.

G‘oyib aka: Bilmayman, bu qanaqasidan chiqib qoldi, *so‘zana* desam, *buzoqboshi*ni tutib kelyapti.

R u s t a m aka: Ipakchilikda *so‘zana* ham chiqadi-da!

“Pilla” payrovi. Askiya. 30-b.

Yuqoridagi matnda pillachilik sohasiga oid *parvona→kapalak→ignachi→so‘zana* kabi hasharotlar nomini anglatuvchi leksemalar bilan so‘z o‘yini qilingan. *So‘zana* so‘zi bilan quyidagi ma’nolar yuzaga chiqarilgan: 1. So‘zanak [f.t.] – *ninachi*. 2. So‘zanak [f.t.] – *otning peshnobi*. 3. So‘zana – *sidirg‘a, gazlamaga gul tikib tayyorlangan, devorga osiladigan bezak buyumi*; gulko‘rpa. 4. So‘zana – *atlasning nomi*[23].

So‘zlovchi bunga tovush orttirish va tovush tushirish bilan erishgan. Quyidagi misolda ham aynan shu usulda so‘z o‘yini olib borilgan:

G‘anijon: Buxoroliklarning kelgusi yilgi va’dasi *Chinidanmikan*?

“Terimchilar” payrovi. Askiya. 20-b.

Chinidanmikin so‘zidagi *i* tovushini tushirib qoldirish yoki talaffuz qilmaslik bilan *rostmikin* ma’nosidagi so‘roq ohangi va *i* tovushini ifodalash bilan *Chini* degan ilg‘or terimchi (1960-1970 yy.) hamda va’daning *tozasidanmikin* ma’nosi yuzaga chiqarilgan bo‘lib, bunga so‘z o‘rtasidagi tovushni orttirish (epenteza), uni qisqa talaffuz qilish bilan erishilgan.

Nutqda tovush tushirish va tovush orttirish usulida qofiya va ohangdorlik talabi bajarilishi mumkin:

Aminbuva: Mulla Qodirjon, avval meva-chevalardan olsangiz-chi, darrov osh qovoqsiz bo‘lsin demasdan.

Qodirjon aka: Bo‘lmasa, yoz mevalaridan siz ham yeb-yeb oling, qovoqoshsiz ketasiz.

“Oshqovoq” payrovi. Askiya. 84-b.

Birinchi gapda *“osh (taom) qovoqsiz bo‘lishi”*, ikkinchi gapda *“qovoq-qosh yoki qosh-qovoq olmay ketish”* ta’kidlangan. Bunga to‘xtamsiz talaffuz qilish hamda ***q*** tovushini qavatlantirish yordamida erishilgan.

Tovush almashtirish+tovush orttirish.

Tovush almashtirish+tovush tushirish. Quyidagi misolda *tovush almashtirish* hamda *tovush orttirish* bilan birdan ortiq axborot ifodalangan:

G‘anijon: Keling, o‘zimiz bir suvchilik qilib turaylik. Aytganday, bu yil suvchining obro‘si oshib ketdi, ilgarigidek qo‘shimcha mukofot uchun raisning kabineti oldida haq deb o‘tirmaymiz.

Jo‘raxon aka: Rahmat, G‘onijon. Ammo g‘o‘zalarni nay usulida sug‘oring, bu – *nayyob* usul ekan.

“Termalar” payrovi. Askiya. 25-b.

Nay og‘iz bilan choladigan musiqa asbobi: katta kanal va kichik teshiklari bilan shaklan sug‘orish usulini eslatadi. So‘z ustasi “raqib”iga paxtani nay usulida sug‘orishni tavsiya qilib, *noyob* so‘zi hamda *nay* va *ob* (suv) so‘ziga ishora qiladi.

Nutq tovushini maqsadli almashtirish, tushirish yoki orttirish ba’zan juft so‘zlar tarkibida ham amalga oshirilishi mumkin:

[23] *ЎТИЛ.* – Тошкент: ЎМЭ, 2006. III *жилд.* – 610 б.

Tohirjon: Turaylik endi, ish vaqti ham bo‘lib qopti. Ancha kulishdik, yangi uchrashgan *oshiq-ma’shuq*larday.

“Duradgorlik” payrovi. Askiya. 71-b.

Tovushlarni o‘zgartirish bilan askiyachilar lingvistik mahorati *hozirjavoblik* asosida yuzaga chiqishi so‘zlovchidan tilshunoslik sohasini po‘xta egallashni taqozo etadi. Shuning uchun jamoaviy nutq – tilni o‘rganish bilan birga, xususiy nutqning imkoniyatlarini o‘rganish kishini *tilshunoslikdan nutqshunoslik* sari hamda *stilistikadan “insonshunoslik”* ilmi sari yetaklaydi. Zero, “Stilistika bu – insonning o‘zi”[24].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Яхшиева Г.Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996.
2. Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008.
3. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2014.
4. Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Туркий тилларнинг фонологияси ва морфонологиясининг долзарб масалалари. – Нукус, 2005.
5. Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. II, III, IV, V жилдлар.

[24] Балли Ш. Французская стилистика. –Москва: Иностранная литература, 1961. – 394 с.